

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TALABALARNING IJTIMOY-AXLOQIY DISPOZITSİYALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Maxkamova Dilafruz

Qo'qon davlat universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: orgservice77@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-4907-1831>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik-psixologik xususiyatlari va samarali usullari yoritilgan. Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy pozitsiya, insoniylik, hamkorlik, tolerantlik, adolatparvarlik, vatanparvarlik, burch va mas'uliyat hissi kabi ijtimoiy-axloqiy sifatlarini shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri sifatida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: talaba, shaxs, dispozitsiya, ijtimoiy dispozitsiya, axloqiy dispozitsiya, ijtimoiy-axloqiy tarbiya, qadriyat, mas'uliyat, axloqiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, tolerantlik, refleksiya, pedagogik ta'sir.

ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-НРАВСТВЕННЫХ ДИСПОЗИЦИЙ СТУДЕНТОВ

Maxkamova Dilafruz

Кокандский государственный университет, доцента (PhD).

Аннотация.

В статье раскрываются теоретико-методологические основы, педагогико-психологические особенности и эффективные методы развития социально-нравственных диспозиций студентов высших образовательных учреждений. Формирование у студентов таких социально-нравственных качеств, как социальная ответственность, нравственная позиция, гуманность, сотрудничество, толерантность, справедливость, патриотизм, чувство долга и ответственности, рассматривается как одна из важных задач современного образования.

Ключевые слова: студент, личность, диспозиция, социальная диспозиция, нравственная диспозиция, социально-нравственное воспитание, ценность, ответственность, нравственная позиция, социальная активность, толерантность, рефлексия, педагогическое воздействие.

ISSUES IN DEVELOPING STUDENTS' SOCIAL AND MORAL DISPOSITIONS

Maxkamova Dilafruz

Kokand State University, Associate Professor (PhD).

Abstract.

This article examines the theoretical and methodological foundations, pedagogical and psychological characteristics, and effective methods for developing social and moral dispositions among higher education students. The development of such social and moral qualities as social responsibility, moral position, humanity, cooperation, tolerance, commitment to justice, patriotism, and a sense of duty and responsibility is analyzed as one of the important objectives of modern education.

Keywords: student, personality, disposition, social disposition, moral disposition, social and moral education, values, responsibility, moral position, social activity, tolerance, reflection, pedagogical influence.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biri intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy mas'uliyatni his qiladigan va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdir. Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassis tayyorlash jarayoni faqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmasligi, balki talabaning shaxsiy, ijtimoiy va axloqiy jihatdan kamol topishini ham ta'minlashi zarur.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashib borishi, axborot oqimining keskin ortishi, turli madaniy va ma'naviy ta'sirlarning kuchayishi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda talabalarda ijtimoiy-axloqiy pozitsiyani shakllantirish, ularni ijtimoiy munosabatlarda faol va mas'uliyatli subyekt sifatida tarbiyalash dolzarb pedagogik muammoga aylanmoqda.

Shaxsning ijtimoiy muhitda o'zini tutishi, qaror qabul qilishi, boshqalar bilan munosabat o'rnatishi va muayyan qadriyatlarga amal qilishi uning ichki dispozitsiyalari bilan uzviy bog'liq. Dispozitsiya shaxsning muayyan vaziyatda ma'lum tarzda harakat qilishga tayyorligi, munosabati va ichki yo'nalganligini ifodalaydi. Shu nuqtayi nazardan, talabalarining ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarini rivojlantirish ularning nafaqat shaxsiy kamoloti, balki kelajakdagi kasbiy faoliyati va jamiyatdagi ijtimoiy pozitsiyasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Talabalarning ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarini rivojlantirish muammosi pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va ma'naviy-axloqiy tarbiya yo'nalishlarining kesishgan nuqtasida shakllanadigan kompleks ilmiy-pedagogik muammolardan biridir. Mazkur masalani tadqiq etishda shaxsning ijtimoiylashuvi, qadriyatlarni o'zlashtirishi, axloqiy me'yorlarni qabul qilishi, ijtimoiy mas'uliyati va real xulq-atvorini o'zaro bog'liq holda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Dispozitsiya" tushunchasi shaxsning muayyan vaziyatlarda ma'lum tarzda harakat qilishga bo'lgan ichki tayyorligi, barqaror yo'nalishi va munosabatini ifodalovchi psixologik hodisa sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan ijtimoiy-axloqiy dispozitsiya shaxsning ijtimoiy munosabatlari jarayonida axloqiy qadriyat va me'yorlarga muvofiq harakat qilishga bo'lgan barqaror ichki tayyorgarligini anglatadi. Bunda dispozitsiya bilim, munosabat va xulq-atvor o'rtasidagi bog'lovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, N. N. Azizxo'jayevaning tadqiqotlari ta'lim jarayonini texnologik asosda tashkil etish, pedagogik maqsad va natijalarni uyg'unlashtirish hamda ta'lim oluvchining faol subyekt sifatidagi mavqeyini ta'minlash zarurligini asoslashga imkon beradi [4; 25–31-b.]. Mazkur yondashuv ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarni rivojlantirishda ham muhimdir. Chunki talabani axloqiy sifatleri faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish orqali emas, balki mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, muloqot qilish va faoliyat jarayonida shakllanadi.

R. Mavlonova, B. Rahmonov va K. Matnazarovalarning pedagogika bo'yicha tadqiqotlarida ta'lim va tarbiyaning o'zaro birligi, shaxsning har tomonlama rivojlanishi hamda tarbiyaviy jarayonning ijtimoiy mohiyatiga e'tibor qaratiladi [6; 118–125-b.]. Ushbu qarashlar ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyani shakllantirishni faqat maxsus tarbiyaviy tadbirlar bilan chegaralab qo'ymaslik, balki uni butun ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, talabani kundalik o'quv faoliyati, guruhdagi munosabatlari, pedagog bilan muloqoti va jamoaviy topshiriqlardagi ishtiroki uning ijtimoiy-axloqiy tajribasini boyituvchi omillar sifatida qaralishi mumkin.

O. Musurmonovning yoshlar tarbiyasi va ma'naviy qadriyatlarga bag'ishlangan tadqiqotlarida ma'naviy qadriyatlarning shaxs kamolotidagi o'rni, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari yoritilgan [5; 14–22-b.]. Mazkur yondashuv ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyaning aksiologik tabiatini asoslash uchun muhimdir. Zero, adolat, halollik, insonparvarlik, vatanparvarlik, hurmat, mas'uliyat va bag'rikenglik kabi qadriyatlar talaba tomonidan faqat nazariy bilim sifatida emas, balki shaxsiy e'tiqod va hayotiy pozitsiya sifatida o'zlashtirilgandagina uning xulq-atvorini tartibga soluvchi ichki mezonga aylanishi mumkin.

V. M. Karimovning ijtimoiy psixologiyaga oid tadqiqotlarida shaxsning ijtimoiy guruhlar, boshqa insonlar va ijtimoiy muhit bilan munosabatlari, muloqot va ijtimoiy ta'sir masalalari tahlil qilinadi [7; 42–49-b.]. Ushbu nazariy qarashlar talabalarning ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalari individual sifat sifatida shakllanishi bilan birga, ularning ijtimoiy muhitdagi faoliyati natijasida rivojlanishini ko'rsatadi. Xususan, tengdoshlar guruhi, akademik guruhdagi psixologik muhit va pedagog-talaba munosabatlari shaxsning ijtimoiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillar sifatida namoyon bo'ladi.

E. G. G'oziyevning umumiy psixologiyaga oid asarlarida shaxsning motivatsion sohasi, faoliyati, psixik jarayonlari va individual xususiyatlari bilan bog'liq masalalar keng yoritilgan [8; 157–165-b.]. Mazkur yondashuv ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyaning motivatsion komponentini tushuntirish uchun metodologik asos bo'la oladi. Xususan, talabani ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etish sabablari uning dispozitsiyasi qanchalik ichkilashganligini aniqlash imkonini beradi. Agar talaba jamoat ishida faqat tashqi talab yoki nazorat tufayli qatnashsa, bu holatni barqaror ichki dispozitsiyaning to'liq ko'rsatkichi sifatida baholash mumkin emas. Aksincha, faoliyat ichki ehtiyoj, mas'uliyat va ijtimoiy foydalilikni anglash bilan bog'langan bo'lsa, dispozitsiyaning yuqori darajada shakllanganligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

M. G. Davletshinning yosh va pedagogik psixologiyaga oid qarashlari talabalik davrini shaxsning ijtimoiy va kasbiy jihatdan faol shakllanish bosqichi sifatida tadqiq etish uchun muhim manba hisoblanadi [9; 87–94-b.]. Talabalik davrida mustaqil qaror qabul qilish, kasbiy identifikatsiya, ijtimoiy munosabatlarning kengayishi va shaxsiy hayotiy pozitsiyaning shakllanishi jadallashadi. Shu sababli oliy ta'lim jarayoni ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarni maqsadli rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiylashuv masalasini o'rganishda A. V. Mudrikning ijtimoiy pedagogikaga oid qarashlari alohida ahamiyatga ega. Muallif shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati, ijtimoiy tajribani egallashi va jamiyatdagi me'yor hamda qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoniga e'tibor qaratadi [13; 17–25-b.]. Ushbu nazariy yondashuv asosida ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyani shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadigan va keyinchalik uning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi ichki yo'nalish sifatida izohlash mumkin.

G. M. Andreevning ijtimoiy psixologiyaga oid tadqiqotlarida muloqot, o'zaro ta'sir, guruhdagi munosabatlar va shaxslararo hamkorlikning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi [11; 87–96-b.]. Ushbu qarashlar talabalarda tolerantlik, hamkorlik, o'zaro hurmat va nizolarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilaydi. Ayniqsa, turli dunyoqarash va ijtimoiy tajribaga ega talabalar bilan birgalikdagi faoliyat boshqa insonning nuqtayi nazarini tushunish va unga hurmat bilan munosabatda bo'lish qobiliyatini rivojlantir

V. A. Slastenin, I. F. Isaev va E. N. Shiyanovlarning pedagogik qarashlarida ta'lim-tarbiya jarayonining shaxs rivojiga ta'siri, pedagogik faoliyatning tarbiyaviy imkoniyatlari hamda o'qituvchi shaxsining ta'lim jarayonidagi roli muhim o'rin tutadi [14; 203–211-b.]. Mazkur yondashuv ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarni rivojlantirishda pedagogning shaxsiy namunasini alohida omil sifatida ajratish imkonini beradi. O'qituvchining adolatli baholashi, talabaga hurmat bilan munosabati, muloqot madaniyati, mas'uliyati va pedagogik etikaga rioya qilishi talabalar uchun bevosita ijtimoiy xulq modeli vazifasini bajaradi.

I. P. Podlasiyning pedagogikaga oid tadqiqotlarida faol ta'lim metodlari, pedagogik hamkorlik va tarbiyaviy

jarayonning tizimliliigi masalalariga e'tibor qaratilgan [10; 276–283-b.]. Bu yondashuv ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarni rivojlantirishda keys-stadi, munozara, debat, rolli o'yin, muammoli vaziyat va loyiha metodlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini asoslashga xizmat qiladi. Bunday metodlar talabani tayyor axloqiy xulosani qabul qiluvchi emas, balki muayyan vaziyatni mustaqil tahlil qiluvchi va qaror qabul qiluvchi faol subyektga aylantiradi.

V. G. Bocharovanning ijtimoiy pedagogikaga oid qarashlari shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati va faol ijtimoiy faoliyat orqali rivojlanishiga e'tibor qaratishi bilan ahamiyatlidir [12; 63–70-b.]. Mazkur nuqtayi nazardan, talabalarning volontyorlik, ijtimoiy loyihalar, xayriya tadbirlari, jamoat ishlari va turli ijtimoiy tashabbuslarda ishtirok etishi ularning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantiruvchi muhim vosita sifatida qaralishi mumkin. Bunda tarbiyaviy ta'sirning samaradorligi talabani real ijtimoiy vazifani mustaqil bajarishi va uning natijasi uchun javobgarlikni his qilishi bilan belgilanadi.

L. S. Vigotskiyning rivojlanish psixologiyasiga oid ilmiy qarashlarida shaxs rivojining ijtimoiy muhit, muloqot va hamkorlik bilan uzviy aloqadorligi asoslab beriladi [15; 104–112-b.]. Ushbu nazariy yondashuv ijtimoiy-axloqiy sifatlarning shakllanishida ham ijtimoiy tajriba va muloqotning ahamiyatini belgilaydi. Talabani axloqiy qarashlari boshqa insonlar bilan munosabat, bahs-munozara, hamkorlik va turli ijtimoiy vaziyatlarni boshdan kechirish jarayonida takomillashadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda shaxsning axloqiy tarbiyasi, ijtimoiylashuvi, qadriyatlarini o'zlashtirishi, muloqot madaniyati, ijtimoiy mas'uliyati va pedagogik ta'sir masalalari turli ilmiy yo'nalishlarda keng o'rganilgan. Biroq talabalarning ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarini yaxlit pedagogik-psixologik konstruksiya sifatida, ya'ni motivatsion, kognitiv, emotsional-qadriyatli, xulqiy-faoliyatli va refleksiv komponentlar birligida rivojlantirish masalasi alohida tadqiqot yondashuvini talab qiladi.

Shu jihatdan mazkur tadqiqotda ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyani faqat axloqiy sifatlarni yig'indisi sifatida emas, balki talabani ijtimoiy va axloqiy vaziyatlarda muayyan xatti-harakatni tanlash hamda amalga oshirishga bo'lgan barqaror ichki tayyorgarligi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuvda bilim, motiv, qadriyat, hissiy munosabat, xulq-atvor va refleksiya o'zaro bog'liq yagona tizimni tashkil etadi.

NATIJA

"Dispozitsiya" tushunchasi psixologiya, sotsiologiya va pedagogikada shaxsning muayyan harakat yoki munosabatga nisbatan ichki tayyorligi, barqaror yo'nalishi va ustanovkasini ifodalash uchun qo'llaniladi. Dispozitsiyalar insonning tashqi ta'sirlarga munosabatini belgilash bilan birga, uning xulq-atvorini ichki jihatdan boshqarib turuvchi mexanizmlardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy dispozitsiya shaxsning jamiyatdagi munosabatlar, ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiy rollar va boshqa insonlarga nisbatan munosabatini ifodalaydi. Axloqiy dispozitsiya esa insonning ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, burch va mas'uliyat, halollik va vijdon kabi axloqiy kategoriyalarga munosabati hamda ularga muvofiq harakat qilishga ichki tayyorligini anglatadi.

Shu asosda ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyani shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda axloqiy me'yor va qadriyatlarga asoslangan holda harakat qilishga nisbatan barqaror ichki tayyorligi sifatida ta'riflash mumkin.

Talabani ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalari uning:

- boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi;
- ijtimoiy mas'uliyatni his qilishi;
- o'z xatti-harakatlariga tanqidiy baho berishi;
- axloqiy me'yorlarga amal qilishi;
- jamoada hamkorlik qila olishi;
- turli fikrlarga nisbatan bag'rikeng bo'lishi;
- adolat va tenglik tamoyillarini qo'llab-quvvatlashi;
- jamiyat manfaatlariga daxldor masalalarda faol pozitsiya egallashi;
- o'z burchini vijdonan bajarishi;
- ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etishi kabi xususiyatlarda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalar tayyor holda berilmaydi. Ular shaxsning hayotiy tajribasi, ta'lim-tarbiya, ijtimoiy muhit, oila, tengdoshlar guruhi, ta'lim muassasasi va madaniy muhit ta'sirida asta-sekin shakllanadi.

Talabalik davri shaxsning ijtimoiy va kasbiy jihatdan faol shakllanish bosqichi hisoblanadi. Bu davrda yosh inson mustaqil hayotga tayyorlanadi, o'zining kasbiy va ijtimoiy mavqeyini belgilashga harakat qiladi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini qayta ko'rib chiqadi.

Talaba shaxsining ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarini shakllantirishda bir nechta omillar muhim ahamiyatga ega.

Birinchidan, talaba mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli unda tanlov qilish, qabul qilingan qaror uchun javobgarlikni his etish qobiliyati rivojlanadi.

Ikkinchidan, talabani ijtimoiy munosabatlar doirasi kengayadi. U turli hudud, madaniyat, ijtimoiy muhit va dunyoqarashga ega bo'lgan insonlar bilan muloqot qiladi.

Uchinchidan, talabalarning kasbiy identifikatsiyasi shakllana boshlaydi. Ular kelajakdagi kasbiy faoliyatida qanday qadriyatlarga amal qilishini anglay boshlaydilar.

To'rtinchidan, mazkur davrda refleksiv qobiliyatlar rivojlanadi. Talaba o'z xulq-atvori, qarorlari va munosabatlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Beshinchidan, talabalarda ijtimoiy faollikka ehtiyoj kuchayadi. Ular jamiyatda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish va jamoat ishlarida faol bo'lishga intiladilar.

Talabalik davri ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarni maqsadli rivojlantirish uchun qulay pedagogik davr hisoblanadi.

MUHOKAMA

Ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalar murakkab tuzilishga ega bo'lib, ularni shartli ravishda motivatsion, kognitiv, emotsional-qadriyatli, xulqiy-faoliyatli va refleksiv komponentlarga ajratish mumkin.

Motivatsion komponent

Motivatsion komponent talabaning ijtimoiy-axloqiy xatti-harakatlarni amalga oshirishga bo'lgan ichki ehtiyojini ifodalaydi.

Masalan, talaba jamoat ishlarida o'qituvchining talabi yoki baho olish uchun emas, balki jamiyatga foyda keltirish istagi bilan ishtirok etsa, bu uning ijtimoiy motivatsiyasi shakllanganligini ko'rsatadi.

Kognitiv komponent

Kognitiv komponent axloqiy me'yorlar, ijtimoiy qadriyatlar, huquq va majburiyatlar haqidagi bilimlarni qamrab oladi.

Talaba halollik, mas'uliyat, adolat, tolerantlik, hamkorlik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini anglashi zarur. Biroq bilimning o'zi yetarli emas. Ushbu bilimlar amaliy xulq-atvor bilan mustahkamlanishi kerak.

Emotsional-qadriyatli komponent

Mazkur komponent insonning boshqalarga nisbatan hissiy munosabati, hamdardligi, rahmdilligi, hurmati va axloqiy qadriyatlarni shaxsiy ahamiyatli deb qabul qilishi bilan bog'liq.

Empatiya ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarning muhim asoslaridan biri hisoblanadi. Boshqa insonning holatini tushuna olish va uning his-tuyg'ulariga hurmat bilan munosabatda bo'lish jamiyatda sog'lom ijtimoiy munosabatlarni ta'minlaydi.

Xulqiy-faoliyatli komponent

Ushbu komponent ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni amaliyotda namoyon qilish bilan bog'liq.

Masalan, talabaning:

- va'dasiga amal qilishi;
- o'z vazifasini o'z vaqtida bajarishi;
- jamoada hamkorlik qilishi;
- boshqalarning huquqlarini hurmat qilishi;
- ijtimoiy foydali ishlarda ishtirok etishi

uning axloqiy dispozitsiyalari amaliyotda shakllanganligidan dalolat beradi.

Refleksiv komponent

Refleksiya shaxsning o'z xatti-harakatlari, qarorlari va munosabatlarini tahlil qilish qobiliyatini anglatadi.

Ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarni rivojlantirishda talabaga "Men qanday harakat qildim?", "Mening qarorim boshqalarga qanday ta'sir qildi?", "Ushbu vaziyatda boshqacha yo'l tutish mumkinmidi?" kabi savollarni berish muhim.

Talabalarning ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarini samarali rivojlantirish muayyan pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi.

— ta'lim jarayonining insonparvarlikka asoslanishi. O'qituvchi talabaga faqat bilim oluvchi subyekt sifatida emas, balki mustaqil fikrga ega shaxs sifatida munosabatda bo'lishi kerak.

— ta'lim va tarbiyaning birligi. Dars jarayonida berilgan bilimlar axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirilishi zarur. Masalan, pedagogika fanini o'qitishda kasbiy bilim bilan bir qatorda pedagogik odob, mas'uliyat va adolat masalalarini ham muhokama qilish mumkin.

— ijtimoiy faoliyat uchun imkoniyat yaratish. Talabalarni volontyorlik, ijtimoiy loyihalar, xayriya tadbirlari, jamoat ishlari va ekologik aksiyalarga jalb qilish ularning ijtimoiy mas'uliyatini kuchaytiradi.

— refleksiv muhitni shakllantirish. Talaba o'z xatti-harakatlarini baholash, xulosa chiqarish va kelgusi faoliyatini rejalashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

— pedagogik muloqotda demokratik yondashuvni ta'minlash. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi ishonchli muloqot axloqiy qadriyatlarning ichki qabul qilinishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalar faqat ma'ruza yoki tushuntirish orqali samarali shakllanmaydi. Bu jarayonda talabaning shaxsiy faolligi va amaliy ishtiroki muhim.

Shu nuqtayi nazardan, keys-stadi, rolli o'yinlar, diskussiya, debat, aqliy hujum, muammoli vaziyatlar, loyiha usuli va refleksiv mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Keys-stadi

Talabalarga muayyan ijtimoiy-axloqiy muammoli vaziyat taqdim etiladi. Masalan:

"Siz guruh sardorisiz. Guruhda ikki talaba o'rtasida kelishmovchilik yuzaga keldi. Har ikki tomon ham o'zini haq deb hisoblamogda. Siz qanday qaror qabul qilasiz?"

Bunday vaziyat talabani mustaqil qaror qabul qilishga, adolat, xolislik va mas'uliyat tamoyillarini hisobga olishga undaydi.

Diskussiya

"Inson uchun shaxsiy manfaat muhimmi yoki jamoa manfaatimi?", "Har qanday vaziyatda rostgo'y bo'lish mumkinmi?", "Ijtimoiy mas'uliyat nimadan boshlanadi?" kabi savollar asosida diskussiyalar tashkil etish talabalarning axloqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Rolli o'yinlar

Rolli o'yinlarda talabalar muayyan ijtimoiy rolni bajaradilar. Bu ularda empatiya, muloqot madaniyati, mas'uliyat

va boshqa nuqtayi nazarni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

Loyiha usuli

“Mening universitetim — mening jamoam”, “Yoshlar va ijtimoiy mas’uliyat”, “Yaxshilik qilishdan boshlaylik”, “Ekologik madaniyat” kabi ijtimoiy loyihalar talabalarni amaliy ijtimoiy faoliyatga jalb qiladi.

Talabalarining ijtimoiy-axloqiy rivojlanishida pedagog shaxsi muhim o‘rin tutadi. Chunki talabalar ko‘p hollarda o‘qituvchining faqat og‘zaki bayon etgan fikrlarini emas, balki uning amaliy xatti-harakatlari, boshqalar bilan munosabati, muammoli vaziyatlardagi qarorlari va kasbiy faoliyatidagi axloqiy pozitsiyasini ham kuzatadilar. Shu jihatdan pedagogning shaxsiy namunasi talabalarda ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim pedagogik omil hisoblanadi. O‘qituvchining adolatli munosabati, bergan va’dasiga amal qilishi, talabani shaxs sifatida hurmat qilishi, boshqa fikrlarni xolis qabul qilishi, baholashda obyektivlikka rioya qilishi va muloqot madaniyatiga amal qilishi talabalar uchun amaliy namuna vazifasini bajaradi.

Shu sababli zamonaviy oliy ta’lim sharoitida pedagogdan faqat yuqori darajadagi kasbiy kompetentlik emas, balki yuksak axloqiy madaniyat ham talab etiladi. Pedagog har bir talabaga shaxs sifatida hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, baholash jarayonida xolislik va adolatni ta’minlashi, talabalarining fikrlarini diqqat bilan tinglashi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni jazolash vositasi sifatida emas, balki rivojlanish va o‘zini takomillashtirish imkoniyati sifatida baholashi lozim. Shuningdek, pedagogik muloqotda etika qoidalariga amal qilish, talabalarga shaxsiy namuna ko‘rsatish va ularning ijtimoiy tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarni rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biridir.

Ijtimoiy mas’uliyat ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy mas’uliyatga ega bo‘lgan talaba o‘z xatti-harakatlarining faqat shaxsiy emas, balki jamoaviy va ijtimoiy oqibatlarini ham anglaydi. Bunday mas’uliyatni shakllantirishda talabalarga real ijtimoiy va amaliy vazifalarni topshirish samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Jumladan, fakultet miqyosidagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish, ijtimoiy loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, jamoat tadbirlarida muayyan mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, yoshlar o‘rtasida ma’rifiy aksiyalar tashkil etish kabi faoliyatlar talabalarda tashabbuskorlik, mas’uliyatlilik va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Bunda asosiy maqsad talabani shunchaki tadbir ishtirokchisiga aylantirish emas, balki uni muayyan vazifani mustaqil rejalashtiradigan, amalga oshiradigan va natijasi uchun javob beradigan mas’ul subyekt sifatida shakllantirishdan iboratdir.

Zamonaviy oliy ta’lim muhitida turli dunyoqarash, qiziqish, hayotiy tajriba va individual xususiyatlarga ega bo‘lgan talabalar bir jamoada ta’lim oladilar. Bunday sharoitda tolerantlik va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish talabalarining ijtimoiy-axloqiy yetukligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tolerantlik boshqa insonning fikrini majburan qabul qilishni emas, balki uning o‘z fikrini erkin ifoda etish huquqini hurmat qilishni anglatadi. Shu bois ta’lim jarayonida turli nuqtayi nazarlarni muhokama qilish, bahs va munozara madaniyatini shakllantirish, jamoaviy topshiriqlarni bajarish, nizoli vaziyatlarni konstruktiv yo‘l bilan hal etish, boshqa insonning pozitsiyasini tushunishga qaratilgan mashqlar hamda madaniyatlararo muloqot elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Hamkorlik esa umumiy maqsadga erishish jarayonida shaxsiy imkoniyat va resurslarni boshqa ishtirokchilarning imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Hamkorlikka asoslangan faoliyat talabalarda o‘zaro yordam, mas’uliyatni taqsimlash, o‘z fikrini asoslash, boshqalarning fikrini hisobga olish va umumiy natija uchun javobgarlik hissini rivojlantiradi. Shu jihatdan oliy ta’lim jarayonida “Axloqiy tanlov” mavzusidagi munozaralar, ijtimoiy muammolarga bag‘ishlangan keyslar, volontyorlik faoliyati, “Bir kun — bir yaxshilik” kabi ijtimoiy tashabbuslar, jamoaviy ijtimoiy loyihalar va axloqiy dilemmalar asosidagi refleksiv mashg‘ulotlardan foydalanish samarali natija beradi. Shuningdek, pedagogik amaliyot jarayonida talabalarining ijtimoiy mas’uliyatini baholash, “Mening kasbiy burchim” mavzusida esse va refleksiv yozuvlar tashkil etish, tengdoshlik yordami va mentorlik tizimini rivojlantirish hamda jamoada nizolarni tinch va konstruktiv yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarning amaliy namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Mazkur faoliyatlarning pedagogik ahamiyati shundaki, ular talabaning ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar haqidagi nazariy bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi. Natijada talaba axloqiy me’yorlarni faqat biluvchi subyekt emas, balki ularni amaliy faoliyatida qo‘llay oladigan, o‘z xatti-harakatlarini baholaydigan va uning oqibatlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan faol shaxs sifatida shakllanadi. Bu esa ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyaning bilim darajasidan barqaror xulq-atvor va faoliyat darajasiga o‘tishini ta’minlaydi.

Zamonaviy oliy ta’limda shaxsga yo’naltirilgan, kompetensiyaviy, aksiologik, faoliyatli va refleksiv yondashuvlardan kompleks foydalanish talabalarining ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlar yaratadi. Mazkur yondashuvlarning uyg‘unligi talabaning shaxsiy ehtiyojlari, qadriyatlari, faoliyati va o‘z-o‘zini anglash jarayonlarini yagona pedagogik tizim doirasida rivojlantirish imkonini beradi.

Aksiologik yondashuv doirasida ta’lim jarayonining markaziga inson va uning qadriyatlari qo‘yiladi. Bunda talaba adolat, insonparvarlik, mas’uliyat, erkinlik, hamkorlik, hurmat va bag‘rikenglik kabi qadriyatlarining mazmunini anglabgina qolmasdan, ularni o‘zining hayotiy va kasbiy pozitsiyasining tarkibiy qismiga aylantirishi zarur. Demak, aksiologik yondashuv ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyaning qadriyatli-motivatsion asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shaxsga yo’naltirilgan yondashuv esa har bir talabaning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy tajribasi va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ijtimoiy-axloqiy tarbiya jarayonida barcha talabalarga bir xil pedagogik ta’sir ko‘rsatish o‘rniga ularning individual imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos metod va vositalarni tanlash ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuv talabaning o‘zligini anglashiga, mustaqil fikrlashiga va o‘z axloqiy pozitsiyasini shakllantirishiga imkon yaratadi.

Kompetensiyaviy yondashuvda ijtimoiy-axloqiy tarbiyaning natijasi faqat talabaning tegishli bilimlarni egallashi

bilan emas, balki ularni real ijtimoiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyati bilan belgilanadi. Xususan, murakkab vaziyatlarda axloqiy jihatdan asoslangan qaror qabul qilish, samarali muloqot o'rnatish, jamoada hamkorlik qilish, nizolarni konstruktiv hal etish va o'z zimmasiga mas'uliyat olish kabi kompetensiyalar ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarning amaliy ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi.

Refleksiv yondashuv esa talabning o'z faoliyati, qarorlari, hissiy kechinmalari va xatti-harakatlarini tahlil qilishiga imkon beradi. Refleksiya orqali talaba muayyan vaziyatda nima sababdan aynan shunday qaror qabul qilganini, uning xatti-harakatlari boshqalarga qanday ta'sir ko'rsatganini va kelgusida o'z faoliyatini qanday takomillashtirish mumkinligini anglaydi. Shu sababli refleksiv mashg'ulotlar ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarning ichki motivlarini aniqlash, axloqiy tanlovlarni anglash va shaxsiy mas'uliyatni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarini rivojlantirish murakkab va ko'p omilli pedagogik jarayon bo'lib, unda pedagogning shaxsiy namunasi, ta'lim muhiti, ijtimoiy faoliyat, qadriyatlar tizimi, amaliy tajriba va refleksiya jarayonlari o'zaro uyg'unlashadi. Mazkur jarayonning samaradorligi talabning ijtimoiy-axloqiy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash, mustaqil qaror qabul qilishiga sharoit yaratish, ijtimoiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va o'z xatti-harakatlarini muntazam tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bevosita bog'liq. Natijada oliy ta'lim muassasasi nafaqat kasbiy bilim va kompetensiyalarga ega mutaxassisni, balki ijtimoiy mas'uliyatli, axloqiy jihatdan yetuk, tolerant, hamkorlikka tayyor va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxsni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-pedagogik muhitga aylanadi.

XULOSA

Talabalarining ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bo'lajak mutaxassisning kasbiy muvaffaqiyati nafaqat uning bilim va ko'nikmalari, balki ijtimoiy mas'uliyati, axloqiy pozitsiyasi, jamoada samarali ishlay olishi, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishi hamda mustaqil va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, oliy ta'lim jarayonida talabning kasbiy kompetensiyalari bilan bir qatorda uning ijtimoiy-axloqiy sifatlarini izchil rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-axloqiy dispozitsiya shaxsning muayyan ijtimoiy va axloqiy vaziyatlarda tegishli xulq-atvorni namoyon etishga nisbatan shakllangan barqaror ichki tayyorgarligini ifodalaydi. Mazkur dispozitsiya motivatsion, kognitiv, emotsional-qadriyatli, xulqiy-faoliyatli va refleksiv komponentlarning o'zaro uyg'unligi asosida namoyon bo'ladi. Shu bois uni rivojlantirish jarayoni faqat axloqiy me'yorlar va ijtimoiy qadriyatlar haqidagi bilimlarni berish bilan cheklanmasdan, talabning ushbu qadriyatlarni amaliy faoliyatida qo'llashi, mustaqil baholashi va shaxsiy xulq-atvoriga singdirishini ham nazarda tutishi lozim.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, talabalarining ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalari ularning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim ichki omillardan biridir. Ushbu dispozitsiyalar ta'lim va tarbiya jarayoni, ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar hamda talabning shaxsiy hayotiy tajribasi ta'sirida shakllanib va rivojlanib boradi. Ayniqsa, talabalik davri shaxsning mustaqilligi, mas'uliyati, kasbiy identifikatsiyasi, ijtimoiy faolligi va axloqiy qarashlari jadal rivojlanadigan muhim bosqich sifatida alohida ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarni rivojlantirishda talabning faol ishtirokini ta'minlovchi interfaol pedagogik metodlardan foydalanish samarali natija beradi. Xususan, keys-stadi, diskussiya, debat, rolli o'yin, loyiha faoliyati, volontyorlik tashabbuslari hamda refleksiv mashg'ulotlar orqali talabalarda ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish, axloqiy muammolarga mustaqil munosabat bildirish, turli nuqtayi nazarlarni hurmat qilish, hamkorlik qilish va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bunday metodlar ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarning nazariy bilim darajasidan amaliy xulq-atvor darajasiga o'tishini ta'minlaydi.

Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy namunasi talabalarining axloqiy pozitsiyasi va qadriyatlarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. O'qituvchining adolatli, mas'uliyatli, tolerant, insonparvar va hurmatga asoslangan munosabati talaba uchun bevosita ijtimoiy-axloqiy namuna vazifasini bajaradi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-axloqiy tarbiya samaradorligini oshirish uchun nafaqat maxsus tarbiyaviy tadbirlarni, balki ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini tegishli qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish zarur.

Talabalarining ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarini baholashda ham kompleks yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda faqat talabning ijtimoiy va axloqiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, uning motivatsiyasi, qadriyat yo'nalishlari, amaliy xulq-atvori, ijtimoiy faolligi, hamkorlik qobiliyati va refleksiv imkoniyatlarini ham hisobga olish lozim. Umuman olganda, ijtimoiy-axloqiy dispozitsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli pedagogik yondashuv oliy ta'limning tarbiyaviy salohiyatini kuchaytirish, ijtimoiy jihatdan faol, axloqiy mas'uliyatli va kasbiy kompetent mutaxassislarni tayyorlash uchun muhim pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Выготский Л. С. Собрание сочинений: в 6 т. Т. 4. Детская психология / под ред. Д. Б. Эльконина. – Москва: Педагогика, 1984. – 432 с. [URL](#)
2. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. – 304 с. [URL](#)
3. Эльконин Д. Б. Детская психология: учебное пособие. – 4-е изд., стер. – Москва: Академия, 2007. – 383, [1] с. – ISBN 978-5-7695-4068-4. [URL](#)
4. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 720 с. – ISBN 5-314-00016-4. [URL](#)

5. Мухина В. С. Возрастная психология. Феноменология развития: учебник. – 10-е изд., испр. и доп. – Москва: Академия, 2006. – 608 с. [URL](#)
6. Обухова Л. Ф. Возрастная психология: учебник для академического бакалавриата. – Москва: Юрайт, 2019. – 460 с. – ISBN 978-5-534-00249-2. [URL](#)
7. G'oziyev E. G'. Ontogenez psixologiyasi: nazariy-eksperimental tahlil. – Toshkent: Noshir, 2010. – 360 b. – ISBN 978-9943-353-37-4. [URL](#)
8. Davletshin M. G., Do'stmuhammedova Sh., Mavlonov M., To'ychiyeva S., Djumabayeva M. Yosh va pedagogik psixologiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2007. – 116 b. [URL](#)
[PDF](#)
9. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. – 160 b. [URL](#)
10. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika: darslik. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2013. – 288 b. – ISBN 978-9943-362-96-3. [URL](#)